

**O'ZBEK TILIDA LEKSEMALARNING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI  
(HAYVON HARAKATINI IFODALOVCHI SO`ZLAR MISOLIDA)**

**Turg'unova Dildora Rahmatjonovna**

ADU lingvistika yo`nalishi magistranti

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852475>**

**Annotatsiya:** Maqolada o`zbek tilida hayvon harakatlarini ifodalovchi leksemalar lisoniy-kognitiv yo`nalishda tadqiq etilgan bo`lib, ushbu so`zlarning tarixiy-etimologik, semantik-stilistik hamda ular ishtirok etgan og`zaki, yozma nutqqa oid matnlarning yaratilishi, qabul qilinishining psixolingvistik jihatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so`zlar:** leksik maydon, steriotip, ssenariy, geshtalt, skript, leksik-semantik guruh, etnolingvistika, psixolingvistika.

**ЛИНГВО-КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА  
(НА ПРИМЕРЕ СЛОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ДВИжение ЖИВОТНЫХ)**

**Аннотация:** В статье в лингвокогнитивном направлении исследуются лексемы, обозначающие движения животных в узбекском языке, и историко-этимологические, семантико-стилистические аспекты этих слов, а также психолингвистические аспекты создания и рецепции текстов, связанных с ними. к устной и письменной речи, в которой они участвовали.

**Ключевые слова:** лексическое поле, стереотип, сценарий, гештальт, сценарий, лексико-семантическая группа, этнолингвистика, психолингвистика.

**LINGUISTIC-COGNITIVE ANALYSIS OF LEXEMES IN THE UZBEK  
LANGUAGE  
(IN THE EXAMPLE OF WORDS EXPRESSING ANIMAL MOVEMENT)**

**Abstract:** In the article, the lexemes representing animal movements in the Uzbek language are researched in the linguistic-cognitive direction, and the historical-etymological, semantic-stylistic aspects of these words, as well as the psycholinguistic aspects of the creation and reception of texts related to oral and written speech in which they participated. researched.

**Keywords:** lexical field, stereotype, script, gestalt, script, lexical-semantic group, ethnolinguistics, psycholinguistics.

**KIRISH**

Tilning eng asosiy vazifasi kommunikativlikdir. Chunki til bиринчи navbatda muloqot qilish uchun zarur.

Borliqda ifodalangan har qanday so`zning ong bilan, tasavvur bilan bog`lanadigan obrazlari mavjud. Masalan, ot, tuya so`zлari hayvon, yo`rtmoq, yo`rg`alamoq, bo`zlamoq, kishnamoq; qumron, qimiz, qazi, go`sht; nor, bo`z, qorabayir; qora, malla, targ`il; arqonlamoq, egarlamoq, minmoq, sog`moq; teri, yag`ir, tuyeq, dum va shu kabi leksik-semantik maydonlarni hosil qiladi. Bu leksik-semantik maydonlar hayvonlarning tasviri, uning tuzilishi bilan ham bog`liq, maslan, ikki o`rkachli (tuya), uloqchi (ot) kabi. Shuningdek u o`zi bilan bog`liq bo`lgan, inson tomonidan bajariladigan minmoq, egarlamoq, arqonlamoq, sotib olmoq, sotmoq, so`ymoq kabi harakatlarni ham ifodalaydi. Yuqorida keltirib o`tgan har bir so`zimiz yantoqni yedi, kavsh qaytardi, uloqda o`zdi, kishnadi, bo`zladi, qulunladi, bolaladi, shaklidagi ssenariylarni yaratadi. Ushbu ssenariylardagi asosiy harakatni amalga oshirilishi, hayvon tomonidan bajarilishi va shu holatda xotirada saqlanishi skriptdir. Turli tillarda ifodalanadigan hayvonlar masalan, ot, tuya bilan

bog`liq bo`lgan bilimlar, ularning nomlari, ulardan olinadigan mahsulotlar nomlari, harakat-xususiyatlari bitta tasvirga birlashib geshtaltni yuzga keltiradi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Harakatni ifodalovchi so`zlar leksik zaxiramizning eng kata qismini tashkil qiladi desak, mubolag`a bo`lmaydi. Chunki ssenariylar natijasida albatta, biror predmet haqida harakat yoki holat ifodalanadi.

It leksemasi termin sifatida dastlab qadimgi turkiy tilga oid mabaalarda qo`llangan. Ilk bor “Devonda” it (it, kuchuk) shaklida qayd etilib, (DLT,I,71) asosan ov qilishda, qo`riqlashda foydalaniladigan uy hayvoni ma’nosini ifodalagan: It köjikkä japishdi –it ovga yopishdi. (japishur, japishmaq) (DLT, III, 77). Keyinchalik “Qutadg`u bilig” da bu leksemaning ma’nodoshi köpäk so`zi ham qayd etilib, ikkalasi ham iste’molda bo`lgan. Köpäk teg ürarlär (it kabi hurishadi). Bu so`z XIII-XIV asr eski turkiy til obidalarida ham qo`llangan<sup>1</sup>. Boshqa turkiy tillarda, xususan Usmonli Turk tilida ham köpek so`zi mavjud bo`lib, u xuddi o`zbek tilidagi singari it so`zi bilan birgalikda barobar qo`llangan (tr.m.wikipedia.org) . Mahmud Qoshg`ariyning “Devon” nini o`rganish jarayonida zoologik terminni boshqa turkiy tillarda, o`zbek tilida ham qo`llanadigan ko`ppak shakliga oid misol mavjud emasligini kuzatamiz. Bu esa ko`ppak so`zini muallif qayd etgandan so`ng paydo bo`lgan, degan xulosaga kelishimizga asos bo`ladi. “Devonda” da aynan it hayvoning ovoz harakatini ifodalovchi kërtti (köritur, keritmäk), qüstashdi (qüstashur, qüstashmaq); ürarlär, jañiladı (jañilar jañilamaq), siñilädi (siñilar siñilämäk), ulidi (ulishur, ulishmaq) kabi leksemalar berilgan.

Tadqiqotimizda hayvon harakatlarini ifodalovchi umumiy leksemalarni **ovozi harakatlarini ifodalovchi leksemalar leksik-semantik guruhiga to`xtalamiz.**

It hayvoni ovoz harakatini ifodalovchi leksemalar: angillamoq, akillamoq, hovullamoq, vovillamoq, vakillamoq, vangillamoq, uli tortmoq, xirillamoq, ovullamoq, uvillamoq, irillamoq, irildamoq, g`ingshimoq; o`v tortish, ulush, irildamoq, ing`ramoq, urmak; kërtti (köritur, keritmäk), qüstashdi (qüstashur, qüstashmaq); ürarlär, jañiladı (jañilar jañilamaq), siñilädi (siñilar siñilämäk), ulidi (ulishur, ulishmaq).

Itlar o`zlarining tovush qonuniyatidan ustalik bilan foydalanadilar. Xirillamoq, irillamoq kabi past tovushlar odatda tahdid, g`azab, tajovuzkorlik ehtimolini ko`rsatadi. Baland tovushlar esa itga yaqinlashishga imkon beradi, yoki yaqinlashish xavfsizligini bildiradi. “Ang-ang” qilmoq (O`TII, I, 83). Itning iltijoli yalingansimon ovoz chiqarishi angillash deyiladi. Hozir esa ularga qarab iltijoli angilliadi. Lekin mo`ysafidlar og`ir qadamlar bilan uning yonidan o`tishar edi. (“Izbosar” hikoya). Oqtosh nari ketishini xayoliga keltirmay, tag`in suykala boshlagan edi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi. Joni og`rigan Oqtosh **angillagancha** onasi tomon pildirab qochdi (“Oqbo`yin”). Cho`ponlar qo`rqmas itni ovozidan farqlasa bo`ladi deyidilar. Cho`ponlarda angillagan it qo`rqligini bildiradi, degan qarash ham mayjud. Masalan, bo`g`ziga og`iz solgan joyida Malla ayanchli **angillab** yubordi. Itning **angillagani** – yengilgani. Keyin g`olibona hurib, tevarakka mag`rur nazar tashladi. (N.Norqobilov, “Oqbo`yin”)

**Vangillamoq** “vang-vang” degan ovoz chiqarmoq. U g`ingshib hura boshlagan ona itni mo`ljalga oldi. Qoq peshonasidan o`q yegan it **“vang” degancha** ohista quladi., bir-ikki oyoq silkib jim qoldi. (N. Norqobilov, “Oqbo`yin”) . Bu so`z itga nisbatan qo`llanib, yoqimsiz ovoz chiqarmoq ma’nosini ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda siñilädi (siñilar, siñilämäk)

<sup>1</sup> Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқики.- Тошкент: Фан, 2008. -Б 94

shaklida qo`llanib, itning alamdan baqirishini ifodalagan. Misol: it sihilädi (DLT, 3, 413). Bu leksema shakldoshlik xususiyatiga ega bo`lib, itning ovozini ifodalashdan tashqari suvning muzlashi, qulquning chingillashini ham ifodalagan. Qadimgi turkiy tilda Mahmud Qoshg`ariy tomonidan jañiladi leksemasi ham qayd etilgan. Bu so`z itning rasmiy hurish ovozidan boshqacha ekanligi ko`rsatib o`tilgan. Misol: it jañiladi – it urishib vingishladi.(DLT, 3, 411) Devon tilida **jañilamaq** harakat fe`lining ikki ma`nosi mavjud bo`lib, ular 1) “**vingishlamoq**”; 2) “**baqirmoq**” insonga nisbatan haqoratli so`z so`zlaganda qo`llangan “ta`lim jañiladiñ” (ko`p vag`illading) (DLT, 3, 411) Tahlil etilayotgan leksema qadimgi turkiy tilda itning ovozidan tashqari haddan ortiq haqoratli so`z so`zlagan insonga nisbatan ham qo`llangan. Bu “ko`p gapirma”, “ko`p vag`illama” shaklidagi yoqimsiz ovoz chiqargan insonning nutqiga ko`rsatuvchi pragmatik maqsadlarni ifodalaydi. **Sihilämäk** fe`lining uchta ma`nosi mavjud bo`lib, bular 1) **it ovoziga**; 2) **suvning muzlashiga**; 3) **qulquning** chingillashiga qo`llangan. Navoiy asarlari tilida bu leksemalar nofaol. O`zbek tilining izohli lug`atida ham tahlilga olingan leksemalar yuqoridaq ma`nolarni ifodalash uchun berilmaydi. Jonli tilda esa “vingishladi” leksemasi it hayvoniga nisbatan saqlanib qolgan, “vang`illadi”leksemasi esa, texnikaga nisbatan qo`llanib qadimgi turkiy tildagi ma`nolarini yo`qotganini guvohi bo`lamiz. Shu o`rinda aytib o`tish joizki, tahlil etilayotgan leksemalarning “ovozi” semasi davrlar osha o`z ma`nosini saqlab qolgan.

Ma`lumki, inson turmush tarzining o`zgarish yangi so`zlarni iste`molga olib kirilishini taqazo etadi. Bu esa tilning ijtimoiyligini asoslaydi. Leksik qatlaming muntazam ravishda o`zgarib borishi, albatta, etnik asos bilan chambarchas bog`liq. So`zlarni fonetik jihatdan davrlar mobaynida muayyan o`zgarishlar kasb etishi, ma`noni kengayishi va torayishi, ma`noni hech qanday o`zgarishsiz saqlanib qolishi o`zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi so`zlar doirasida ham tadqiq etish zarurligini ko`rsatadi.

<b>Qadimgi turkiy til</b>	<b>Navoiy asarlari tili</b>	<b>Ma`nosi</b>	<b>Hozirgi o`zbek tili</b>
jañiladi (jañilar jañilamaq)	qo`llanmagan	Vingishladi	baqirdi
Sihilädi (sihilär sihilämäk)	qo`llanmagan	vang`illamoq	Chiyilladi

### TADQIQOT NATIJALARI

**Akillamoq** so`zi itning hurishini bildirib, äk (äk-äk) taqlid so`zidan illa qo`shimchasini qo`shish yo`li bilan yasalgan. Hadeb vovillamoq, vakillamoq; ko`chma ma`noda hadeb yig`layvermoq, arillayvermoq (go`dak haqida) (O`TIL, I, 62). Ayniqsa, darvoza ochilgan kezlar o`zini qo`yarga joy topolmay qoladi: sakraydi, irg`ishlaydi, **akillarydi**, irillarydi, goho bo`ynini siqib turgan arqonni g`ajiydi – xalos bo`lishga jon-jahdi bilan urinadi (N. Norqobilov, “Oqbo`yin”). Nutqimizda itning bo`lar-bo`lmasga hadeb vovullash holati uslubiy maqsadda insonga nisbatan qo`llanib, ikki xil ma`noni ifodalaydi: 1) bema`ni gaplarni ko`p gapirish holati – “E, **akillaryverma**, Safar!-dedi buqoq, -biz nima deyapmiz-ku sen nima deyapsan. (A. Qahhor “Mehrobdan chayon”); 2) adresantning adresatga bo`lgan xurmatsizlik, norozilik, ma`nosi yuzaga chiqadi “hozir kelib qolsa, rosa **akillarydi**” (So`zlashuvdan). Bu so`z asosan so`zlashuv

uslubida qo`llanadi. Akilladi, akillaryverma kabi leksik vositalar matn tarkibida qo`llanganda quyidagi mazmuniy munasabatlar yuzaga chiqadi:

- 1) bir necha bor davom etgan harakat va holatdan norozilikni;
- 2) nutq yoqmaydigan mavzuda ifodalanayotganligi;
- 3) “boshqa so`zlama” degan qat’iy inkor;
- 4) salbiy uslubiy baho

Shuningdek, bunday leksemalar nutqda har qanday odamning so`zlash harakati va holatiga nisbatan qo`llanmaydi, aksincha, retsipyent va produtsiyent o`rtasidagi aniq nutqiy vaziyat talab etadi, oldindan bir-birini tanishlik, “yaqinlik”, “bahs-munozara”, “jiddiy tortishuv” kabi psixolingistik munasabatlar ham yuzaga chiqadi: “E, **akillaryverma**, Safar! - dedi buqoq, – biz nima deyapmiz-ku, sen nima deyapsan! (A. Qahhor “Mehrobdan chayon”). )

O`zbek tilida **hovullamoq** leksemasi kam qo`llanib, aynan vovullamoq; g`oyat achchiqlanmoq, o`ta darajada g`azablanmoq ma`nosini ifodalaydi (O`TIL, 5, 587) Vovullamoq so`zi **shevada ovullamoq** shaklida ham qo`llanadi. Aynan vovullamoq. (O`TIL, III, 82). Bu leksemalar keyinroq paydo bo`lib, qadimgi turkiy til, eski o`zbek adabiy tili manbaalarida qayd etilmaydi. Bu esa hovullamoq, ovullamoq etnolingistik birlıklarini **vovullamoq leksemasining dialektal** shakli deb belgilashimizga asos bo`ladi. G`azablangan kuchuklarning **hovullahshi**, tomoshabinlarning qiyqirishi ko`kni qoplaydi (Oybek, Tanlangan asarlar)

Itning ovoziga nisbatan **vovullamoq** so`zi ham qo`llanadi. Bu so`z o`zbek tilining izohli lug`atida quydagiCHA ifodalanadi: “vov-vov” degan ovoz chiqarmoq; xurmoq ( it haqida) (O`TIL, I, 464). Misol: Darvozadan bironta sharpa sezar-sezmas, darrov zanjirlarini shildiratib, turumga yopishib **vovullay** boshlaydi (G`afur G`ulom). Qadimgi turkiy tilda **köritti (köritur, keritmäk)** (DLT,II, 352) shaklida turkiy so`zlar devonida qayd etilgan bo`lib, **vovullatdi** degan ma`noni ifodalaydi . Ol itin köritti- u itini vovullatdi. Xalq dostonlarimizda ham qayd etilgan vovullamoq so`zi o`zining juda uzoq tarixga ega: Shunda habarga Elomon degan bir kishi kelgan edi. Qaysi bir kecha itlar **vovullab, hurib** bir kishining tovushi chiqdi (“Alpomish”). Mahmud Qoshg`ariy qarluqcha **köritti (köritur, keritmäk”)** so`zining pragmatik xususiyatlari haqidagi dastlabki ma`lumotlarni ko`rsatib o`tgan. Devonda xalq tilida o`rinsiz so`zlarni gapiradigan, maqtonchoq, laqma insonlarga nisbatan qo`llanadigan “ko`p karillama” iborasining yasalishiga asos bo`lgan deya izohlanadi.

Vovullamoq so`zi “vov-vov” tadliq so`zidan yasalgan bo`lib, ko`chma ma`noda insonga nisbatan salbiy munasabatni ko`rsatish maqsadida qo`llanadi. Bunda adresatning ovoz tembrini yuqoriligi ko`rsatish bilan birga, shu holatni yuzaga chiqaruvchi sabab omili inson ya`ni – nutq qaratilgan shaxs ekanligi aks etadi: [Eshon] – Senga kim qo`yibdi bunday gaplarni!-deb **vovullab berdi**. (P. Tursun, “O`qituvchi”).

Nutqiy harakatni ko`rsatuvchi **vovullamoq, akillamoq, vakillamoq**, leksik birlıklarida “**nasihat qilmoq**”, “**norozi bo`lmoq**”, “**yig`lamoq**”, arxisemalari mavjud. Qiyoslang: Oqbo`yin **akillashdan charchab**, yana timirskilana boshlaganida qiya ochiq eshikka ro`baro` bo`ldi (N. Norqobilov, “Oqbo`yin”); Qoraxat kelgan kuni so`kkanimning alamini olyapti. - Voy ablah-ey! – Cholim do`stining yelkasiga qoqdi. – Qo`yaver, it **akilladi** qo`ydi-da. (O`Hoshimov, “Ikki eshik orasi”) Yuqoridagi misollarning birinchisi og`zaki nutqqa, ikkinchisi esa yozma nutqqa oid bo`lib, ikkisida ham akillamoq leksemasi qo`llangan. Birinchi gapda bu so`z bosh ma`noni, itning “behudaga vovullahshi” ni; yozma nutqqa oid misolda esa okkazianal ma`noni ifodalagan. Har ikki akillamoq leksemasi orqali “behuda ovora bo`lmoq”, “biror natijaga erisha olmaslik” kabi

mazmun anglashiladi. Ikkinci gapda qo`llangan **it akilladi qo`ydida** konstruksiyasi orqali quyidagi axborotlar mavjud:

- 1) nutq qaratilgan shaxsni hayvonga o`xshatish
- 2) uning gapirishini itning akillagan ovoziga o`xshatish
- 3) behuda ovora bo`lishi
- 4) biron natija chiqmasligi
- 5) beparvolik
- 6) ruhiy dalda berish kabi psixolingvistik bilimlar yuzaga chiqadi.

### MUHOKAMA

**Akillaryvermoq so`zi** nutqda ko`chma ma`noda dag`al bo`lar bo`lmas gaplarni gapirmoq, vaysamoq, valdiramoq ma`nolarini ifodalashini yuqorida ko`rib o`tdik. O`zbek tilida go`dakning hadeb yig`layverishi, hech narsaga ovunmay yig`lashda davom etishi akillaryvermoq so`zi orqali ifodalanadi (“O`zbek tilining izohli lug`ati” I, 62-b). Bu leksik birlikni go`daklarning yig`lashiga nisbatan qo`llaganimizda “yoqimsizlik”, “bezor bo`lish” kabi mazmuniy munosabatlar aks etishi bilan birga salbiy uslubiy baho ham aks etadi. Xuddi shunday mazmuniy munosabatlar vakillamoq leksemasi orqali ham ifodalanadi.

**Uvullamoq** Cho`ziq “uv” degan ovoz chiqarmoq ulimoq itdan ham ko`ra ko`proq bo`ri va chiyabo`ri, it, tulkinining ovoziga nisbatan qo`llanadi. Qadimgi turkiy tilda **ulidi** (**ulishur, ulishmaq**) shaklida qo`llangan. Mahmud Qoshg`ariy bu leksemani bo`rining ovoziga bo`ri **ulidi**; ulishdi – ulishdi. Bo`ri barcha ulishdi – hamma bo`rilar ulishdi (ulishur, ulishmaq) (DLT, I, 176); itning ovoziga, odamning alamdan baqirib yig`lashiga (DLT, 3, 272) nisbatan qo`llanishini ko`rsatadi. Biroq devonda oxirgi ikki ma`nosiga misol berilmagan. Bu so`z keyinchalik eski turkiy tilda, Alisher Navoiy asarlarida **o`v-tartish**: O`vidan tushub bog` aro zilzila, Choqin shaklidin bo`ynida silsila (ANATIL, III, 603) shaklida qayd etiladi. O`zbek tilida bugun ham ulimoq aynan uvlamoq shaklida (O`TIL, IV, 287) ham, ulimoq shaklida ham qo`llanib kelmoqda. Faqat, ulimoq bo`ri va tulkilarning cho`ziq uv tortishini ifodalaydi. Itning ovoziga nisbatan juda kam holatlarda qo`llanadi. Yaqindagi chiroq miltirab turgan qo`rg`onda it ulidi. (S. Anorboyev, “Hukm”) Uli tortmoq aynan uv tortmoq (O`TIL, 4, 278) shaklida itning ovoz harakatini ifodalaydi. Bugun o`zbek tilida uv tortmoq, uvlamoq so`zlari it, bo`ri, chiyabo`ri, tulkinining ovoz harakatini ifodalashini, uli tortmoq esa itning ovozini ifodalashga nisbatan qo`llanadi. Unda bunda yaqin qishloqda itlarning yalqovlik bilan **uli tortgani** qulqqa chalindi (O`TIL, 4, 278) // Shu kunlarda Oqbo`yin tutqunlikdan ham ko`ra issiqdan behad azob tortardi. Gohida azbaroyi chidolmaganidan tumshug`ini ko`kka ko`tarib mungli **uvlab yuborardi**. (N. Norqobilov, “Oqbo`yin”); O`rikzorda ikki-uch mart chiyabo`ri **uvlagani** eshitildi. Ertalab havo tund, osmonni past tushgan bulutlar qoplab olgan, ayvonda chumchuqlar chirqillashardi. **Uv solmoq** (yoki tortmoq) “Uv” degan cho`ziq ovoz chiqarmoq (O`TIL, IV, 261) Ovul tinch, goho uzoqda, Allonbiy qo`rasi tomondan bo`ri uv tortardi. (Asqad Muxtor, “Qoraqalpoq qissasi”); **Uvlamoq** aynan uvillamoq. Uvlab yig`lamoq, **uvlab qoldi** bir to`da mal`un bo`rilar (O`TIL, IV, 262)

Alisher Navoiy dard bilan ohista yig`lamoq so`zining ma`nosini ifodalash uchun **igranmoq, ulumoq** leksemalarini qo`llagan<sup>2</sup>. Shuningdek “fig`on ayla” leksemasini insonning dod-faryodini aks ettirishiga, **eshakning hangrashiga, itning uvillashiga** nisbatan ham qo`llaydi. Masalan: Itlar **aylab** motam ko`p **fig`on** (“Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”, III tom 351-b)

<sup>2</sup> Хамидов З., Холбоева М. Алишер Навоийнинг синонимлардан фойдаланиш маҳорати. Т.: Мернус. 2010.- Б 51

Hozirgi o`zbek tilida it hayvoni ovoz harakatini ifodalash maqsadida har ikki leksema qo`llanadi: Lallaymay, boshidan tut!-deya buyurdi Salom duxtir - ustiga minib ol. U (duxtir) imillagancha yaradagi qurt va sochma o`qlarni bittalab terarkan, Oqbo`yin ustidan Rasulni itqitib yubormoqqa intilar, to`lg`onar, **ingrar**, g`ingshir, Salom do`xtirga yeb-yutib qo`ygudek tikilardi.(N,Norqobilov, “Oqbo`yin”). Alisher Navoiy asarlari tilida **ulush** leksemas nola chekmoq, dod-voy qilmoq; uvillamoq, uvillashmoq, ulimoq (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”, 3-tom, 287-b) kabi ma`nolarni ifodalaydi. Navoiy asarlari tilida itning ovoz harakatini ifodalash shakliga quyidagicha misol uchraydi: Har oqshom usrukardin horij tarona telba itlar **ulishqandin** nishona. Bu odatdagи vovillash yoki akillash ovozidan ko`ra farqli bo`lib,unda “jismoniy azoblanish” semasi mavjud.

Vakillamoq qo`llanishi akillamoq (O`TIL, I, 436) Uzoq (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”, 3-tom, 287-b): Yaqindan boshqa itlar ham vakillashib, unga ovoz bera boshladi (Gazetadan). Bu leksema ham ko`chma ma`noda insonning yoqimsiz gaplarni tinimsiz gapirishiga nisbatan qo`llanib salbiy uslubiy bahoni aks ettiradi:bolalik qilib vakilladi (So`zlashuvdan) Taqliq so`zdan yasalgan fe`lni xurmoq shaklda ham qo`llaymiz. ko`chma ma`noda o`shqirmoq, qopmoq.

O`zbek tilida “dodlamoq” leksemasi o`zida “norozi bo`lmoq”, “e`tiroz bildirmoq”, shuningdek, “yig`lamoq” semalarini ifodalaydi. Masalan: Eng qizig`i devor boshida o`qtin-o`qtin ko`rinish beradigan babaq xo`roz. U o`ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo`yinga boshini u yonbu yon burib anchayin qarab qo`yadi-da, qanotlarini tap-tap qoqqancha, birdan qichqirib qoladiki, sho`rlikk Oqtosh jur`atsizligiga yarasha o`lgudek bo`sang– salga **dodlaydi** (N. Norqobilov, “Oqbo`yin”).

Yuqoridagi misolda “yig`lamoq” semasining lug`aviy darajalanishini ko`rsatayotgan “dodlamoq” leksemasi uslubiy maqsadda itga nisbatan qo`llanib, uning yig`lashini emas, balki chidamsizligini, arzimas harakat-holatlarga ham akillayverishini ifodalagan. Alillamoq so`zining o`rnida qo`llangan. Negaki, borliqda hech bir hayvonning ovoz harakatlari “dod-dod” tovushiga taqlid shaklida uchramaydi.

O`zbek tilida itning ovoziga nisbatan qo`llanuvchi xirillamoq fe`lining birgalik nisbatdagi shakli xirillashmoq so`zi (O`TIL, IV, 400) ham mavjud. Bu so`z xir-xir tovushiga taqlid so`zidan yasalgan Itlar bir-biriga **xirillashdi**. Bu leksemani faqat birgalik nisbatda qo`llaganimizda it hayvonining ovozi bilan bog`liq ma`nosini ifodalanadi. Ko`chma ma`noda so`zlashuv uslubida qo`llanib, birov bilan aytishmoq, urushmoq, janjallahmoq ma`nolari shakllanadi. Harakat nomi xirillamoq shaklida esa itning tovushini mutlaqo ifodalamaydi. Masalan, tashqarida kimningdir xirillagini eshitildi // tashqarida (itlar) xillashdi. Bunday shaklda boshqa tovushlarga taqlid ma`nosini birlinchi planga chiqadi. E`tibor bering: Xirillamoq Qiyin-qistov bilan jonini siqmoq, mavh etmoq M: Qo`y bog`izlamoq, bog`izlangan qo`ydek **xirillamoq** (O`TIL, I, 168-b). Shuningdek, xirillamoq so`zi insonga nisbatan qo`llanib tomoqning xirillashini, ovozning tebrini, tovush psychalarining shikatlanganini ifodalaydi. So`zlashuv tilida birdan ortiq kishilarning o`zaro nizolashuvida g`ijillashmoq, xirillashmoq so`zleri **“janjal”** arxisemasini ifodalaydi:

Olamning lisoniy manzarasida o`zbek tilida irillamoq so`zi itning ovozini ifodalaydi. Bu so`z o`zbek tilining izohli lug`atida “Ir-r-r” degan ovoz chiqarmoq, hurmoq ma`nolarini ifodalaydi. (O`TIL, ) Ertasi Xidir xira boshliqto`rtta otliq itlarni kamardan topishdi. Oqbo`yin qochmadi. Orqa oyog`ini sudrab bazo`r odimlayotgan Qoplanning girdini aylanib, tahdidli **irilladi**.(N. Norqobilov, “Oqbo`yin”). Alisher Navoiy asarlari tilida **irilda** shaklida uchraydi: Gohi g`azab bilan irildab, Gardun asadi sori xirildab. (“Navoiy asarlaritilining izohli lug`ati”, IV tom 229-b). O`zbek tilida irillamoq leksemasi ishtirok etgan matnlarda xarkterni anglatuvchi, ochib

beruvchi xususiyatlar mavjud. Itning shunday harakatiga nisbatan “urushmoq” semasi insonning so`zlashuv harakatiga, so`zlash ohangiga ko`chirilib, salbiy ma’no ifodalab keladi. Hayvonot dunyosi til munosabatlariga ham o`zining ta’sirini ko`rsatadi. Shu asosdan o`zbek tili leksik fondida zoonim komponentli etnolingvistik birliklar, maqollar, iboralar, o`xshatishlar vujudga kelgan. Itning ovozini ifodalovchi bu leksema uning xarakterini ham ifodalaydi.

**G`ingshimoq Uvlash, vovullahdan ko`ra ingrashga yaqinroq tovush chiqarmoq; ma’nosiz yoki ma’nosini ilg`ab bo`lmaydigan tovushlar chiqarmoq; ko`chma salbiy ma’noda zorlanuvchi, bo`lmaq`ur gap qilmoq (O`TIL, V, 477)** past ovoz chiqarmoq, bezovtalanmo In yonidagi chirkin xashaklar ustida cho`zilib yotgan ona it bezovta **g`ingshigandan** so`nggina qadam tovushlari kelayotgan tomonga o`g`irildi. (N.Norqobilov, “Oqbo`yin”)

**Hurmoq so`zi hur - “vovulla”, “akilla”** so`zini anglatadi. Endi birodar, men sizga aytsam, o`zingizdan ham o`tdi-da. Ko`rib turib bormadingiz-a. It boshi bilan kuchugungiz chopib keldi. – Endi u – it! Shu! O`z oti bilan – it! Bo`lgan-bo`lma ganga aralashib, **hurib** yotadi.(T. Murod “Ot kishnagan oqshom”) Shu topda, qishloqning darbadar itlari avjga kelgan, har tomonidan **hurishlarini** yuksaltirganlar, tor ko`chaning tugalishidagi soy hamma uxbab jum bo`lganda haybatli ovozini boricha qo`yib yuborib, och yo`lbarsday guv-guv bo`kirardi. Qadimgi turkiy tilda **hurishdi** so`zi **qıstashdī qıstashur, qıstashmaq** ( DLT, 2, 258) shaklida qayd etilgan, lekin bu so`z itdan boshqa hayvonlarning ham hurishiga nisbatan qo`llangan. Shunday bo`lsa-da, Devonda itning ovoziga nisbatan qo`llangan faol so`z sifatida ko`plab misollarni uchratamiz: İt qamug` tumlig`din qıstashdī – hamma itlar sovuqdan hurdi (DLT, 2, 258). Shuningdek Mahmud Qoshg`ariy tomonidan itning ovoz chiqarishini lisoniy jihatdan ifodalovchi ördi so`zi ham qayd etilgan. Bu so`z ko`p ma’noli so`z bo`lib, Devonda olovga nisbatan “pufladi”; itga nisbatan “hurdi” (DLT, 1,177) kabi ma’nolarini ifodalaydi. XI asrda ür tarzida talaffuz qilingan. Alisher Navoiy asarlari tilida **urmak** so`zi aynan hurmoq, ulimoq (ANATIL, III, 297) shaklida qo`llanib, u unlisining XI asrdagi yumshoqlik belgisi yo`qolgan. Misol: Yilon netgay urib nesh ajdahoni, It **urmak** birla yonmas karvoni (A.Navoiy). **Alisher Navoiy xurush // xoro`sh ~ ayla; qıl** leksik birliklarini qichqirish, hayqirish, shovqin-suron; to`polon, janjal kabi ma’nolarda qo`llaydi (ANATIL, III, 435) Biroq bu leksemani itning ovoziga nisbatan qo`llanganlik holatini kuzatmaymiz: Atridin dahrni muattar qil. Bulbulig`a baland **ayla xuro`sh**, Sol xuro`shi bila ulus aro jo`sh. (A.Navoiy, “Sabbai sayyor”) Keyinchalik so`z boshidagi h undoshi qo`shilib, hurmoq shakliga kelgan va bugungi kunda ham itning ovoziga nisbatan “vov-vov”, “ak-ak”, “vak-vak” va shu kabi tovushlarni umumlashtiruvchi leksema sifatida **hurmoq** so`zi qo`llanadi.

### MUHOKAMA

Tukiy xalqlar leksik fonida jumladan, o`zbek tilida ham qo`llanadigan it kabi hurmoq, itdek akillamoq, qopmoq, irillamoq kabi o`xshatishlar, maqollar, iboralar kabi etnolingvistik birliklar ishtirot etgan og`zaki va yozma nutqqa oid matnlarda “charchamoq”, “sadoqat bilan hizmat qilmoq”, “janjal ko`tarmoq”, “vahima qilmoq” kabi inson xarakterini aks ettiruvchi psixolingvistik ma’lumotlar aks etadi. Masalan, **egasidan rag`bat olgan it battar hurar** iborasiga e’tibor beradigan bo`lsak, unda oddiy xizmatchi, yoki kimningdir himoyasi ostida bo`lgan insonning “homiysi” tomonidan iliq munosabat ko`rsatilayotgani, va bu “e’tibordan” ilhomlanib boshqalarga yomon munosabatda bo`lishini ko`rsatadi.

It hayvonining ovoz harakatini ifodalovchi LSG tashkil etgan leksemalar bugungi kunda o`zbek tilida ham qo`llanib kelayotgani, hamda ulardagi yuz bergen semantik o`zgarishlarni jadval asosida izohlashimiz mumkin.

<b>Qadimgi turkiy til</b>	<b>Navoiy asarlari tili</b>	<b>O`zbek tilining izohli lug`ati</b>	<b>Mazmuni</b>
këritti (këritur, keritmäk)	—	vovillamoq	Vovillatdi
qïstashdï (qïstashur, qïstashmaq); ürarlär	ur ( urmak)	Hurmoq	Hurmoq hurishadi (ko`plikda)
jañiladï (jañilar jañilamaq)	—	—	vingishladi
siñilädi (siñilär siñilämäk)	—	—	vang`illamoq
ulidï (ulishur, ulishmaq)	ulush (ulimoq)	Ulimoq	daxshatli vovilamoq
—	irilda	Irillamoq	“ir-r-r” degan ovoz chiqarmoq
—	ing`ramoq	—	ing-ng-ng degan ovoz chiqarmoq
—	uvillamoq	villamoq yoki uvlamoq	cho`ziq “uv-v-v” degan ovoz chiqarmoq
—	—	hovullamoq (kam qo`llanadi)	vovullamoq
—	—	xirillashmoq	vovullamoq
—	—	uli tortmoq	“xir-r-r” degan ovoz chiqarmoq
—	—	vakillamoq	ayn uv tormoq
—	—	akillamoq	
—	—	Angillamoq	Vovullamoq
—	—	uv solmoq (yoki uv tortmoq)	“ang-ng-ng” degan ovoz chiqarmoq.
—	—	—	“uv-v-v” degan cho`ziq ovoz chiqarmoq.

Jadvalga e'tibor bering:

Yuqoridagi misollardan it hyvonining ovozini ifodalovchi lelsemalarda nafaqat semantik, balki fonetik jihatdan o`zgarishlar ro`y bergenligi ko`rinadi. Qadimgi turkiy tilda qo`llangan it hayvonining ovoz harakatini ifodalovchi ayrim leksemalar Navoiy davri tilida fonetik o`zgarishga uchragan holatda o`tgan. Quyidagi jadvalda so`z o`rtasi (inlaut) dagi fonetik o`zgarish unlilar tizimida ham mavjud bo`lganiga oid misol bilan tanishamiz.

<b>ulidï (ulishur, ulishmaq)</b>	<b>ulush (ulimoq)</b>	<b>Ulimoq</b>	<b>dahshatli vovilamoq</b>
--------------------------------------	-----------------------	---------------	----------------------------

## **XULOSA**

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, o`zbek tilida hayvonlar harakatini ifodalovchi leksemalar milliy-madaniy xususiyatlarga ega. Ular xalqning tarixiy-lisoniy manzarasini aks ettiradi.

## **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Алпанова Ш. Ўзбек тилида рухий ҳолатнинг акс этиши. - Тошкент: Академнашр, 2019. - 112 б.
2. Devoni lug'otut turk (indeks-lug'at) - Ziyouz.com
3. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқики.- Тошкент: Фан, 2008. -Б 119.
4. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Невматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
6. Содиқова М. Феъл стилистикаси. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
7. Sobirov A. o`zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. T: Ma'naviyat, 2004
8. Ҳамидов З ., Холбоева М. Алишер Навоийнинг синонимлардан фойдаланиш маҳорати. Т.: Мериус. 2010.- Б 58.
9. Ўзбек тилининг изохли лугати. 4 томлик .– Тошкент: ЎзМЭ, 2008.

## **Elektron resurslar:**

1. [tr.m.wikipedia.org](http://tr.m.wikipedia.org)
2. <https://uz.khanacademy.org/science/biology/behavioral-biology/animal-behavior/a/intro-to-animal-behavior>
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi